

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzARB
muammolari**

Jild 3, Son 10

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 10 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизилиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа оқтори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаси хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шоҳида Зайнине – педагогика фанлари доктори, доцент.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-туманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психологик хизмат бошлиги.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Фарманова Гулнара Комилевна

МЕТОДЫ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО СОГДА В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА 9-18

Саидбобоева Гулзора Нематжоновна

ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АРХИВИ ҲУЖЖАТЛАРИДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРИНИНГ ҚУРИЛИШИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ ОХИРИ-30-ЙИЛЛАР БОШИ) 19-26

Ахмедов Шахзод Фарход ўғли

МУСТАҚИЛЛИККА ЭРИШИШ АРАФАСИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ УМУМИЙ ҲОЛАТИ ВА МАВЖУД МУАММОЛАРИ 27-34

Mirsoatova Sayyora Turg'unovna

MARKAZIY FARG'ONA NEOLIT JAMOALARI MADANIYATI HAQIDA MULOHAZALAR 35-39

Янгибоева Дилноза Ўқтамовна

МУҲАММАД ШАРИФЖОН МАҲДУМ САДРИ ЗИЁНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ФАОЛИЯТИ 40-48

Maҳмудов Эркинжон Асқаралиевич
АРАБЛАР ТОМОНДАН ФАРГОНАНИНГ ЗАБТ ЭТИЛИШИ ҲАҚИДАГИ МАЪЛУМОТЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ 49-53

Yoriqulov Nasibulla Xoliyorovich

O'ZBEKISTON HUDUDIGA G'ARB ME'MORCHILIK AN'ANALARINING KIRIB KELISHI 54-58

Ergasheva Bahridil G'olibjonovna

IJTIMOIY TARMOQLARDAGI REKLAMALARNING IJTIMOIY-MA'NAVIY HAYOTGA TA'SIRIGA DOIR MULOHAZALAR (ETNOSOTSILOGIK TAHLIL) 59-65

Абдухамидов Исломбек Абдухалим ўғли

МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИНИ ЎРГАНИШДА ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР 66-74

Boltayeva Moxichehra Jamshid qizi

XORIJUY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN KO'RSATKICHLAR (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) 75-80

Кандахаров Анваржон Хасанович, Бабаярова Шахноза Шухратовна

БУХОРО ХОНЛИГИДА АБДУЛЛАХОН II ДАВРИНИНГ ҚУРИЛИШ ИНШООТЛАРИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР 81-86

8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Boltayev Nurali Shiramatovich

AGRAR OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI 87-93

Дустова Мухайё Худайбердиевна
 РОСТ, УСТОЙЧИВОСТЬ, ДОХОДНОСТЬ: ЭКОНОМЕТРИКА ФИНАНСОВЫХ ПОТОКОВ НА
 СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ 94-102

Ravshanov Malik Naimovich
 METHODOLOGY FOR DETERMINING THE NEED FOR ECONOMIC RESOURCES OF THE ROAD
 TRANSPORT COMPLEX..... 103-108

Xushmuradov Oman Namozovich
 TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI 109-115

Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li
 DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH 116-121

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Наврӯзова Гулчехра Нигматовна
 АКАДЕМИК ИБРОҲИМ МЎМИНОВ ИЛМИЙ ЖАСОРАТИНИНГ ЯНГИ ҚИРРАСИ 122-128

Talapov Baxriddin Aljanovich
 KONSTITUTSIONIZM DEMOKRATIK RIVOJLANISHNING ASOSI SIFATIDA 129-134

Tajibaev Muxiddin Abdurashidovich
 JAMIyat HAYOTIDA SINERGETIK DUNYOQARASH PARADIGMASINI TADQIQ QILISHNING
 AHAMIYATI 135-140

Солиев Икромжон Комилжонович
 РАҶАМЛИ ДУНЁДА ИНСОН ҚАДРИ МУАММОСИ: ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИН 141-147

To'xtayev Xakim Primovich
 TASAVVUF TA'LIMOTLARIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING NAMOYON
 BO'LISH XUSUSIYATLARI 148-153

Уразалиева Гулшада
 СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ «ГЕНДЕР» В СИСТЕМЕ
 ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ 154-160

Гуламова Мавжуда Ташиулатовна
 ИЖТИМОЙ АХЛОҚ МЕЗОНЛАРИНИ ЎРГАНИШДА КУМУШХОНАВИЙ
 ВАСИЯТНОМАЛАРИНИНГ ЎРНИ 161-165

Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li
 GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIY-DUNYOVII DAVLAT
 SIFATIDAGI MAQOMI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL) 166-171

Quvonov Sardor Zokirovich
 MA'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA “MANOQIBI SHAYX XUDOYDOD VALIY”
 ASARINING AHAMIYATI 172-179

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Халметова Мехрибону Гайратжоновна
**ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКОЙ ЛЕКСИКИ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ
ЯЗЫКАХ** 180-186

Abdijabbor Amanov
**MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIKNING MATNNING KATTA BIRLIGI SIFATIDA O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI** 187-194

Umarova Xurshida Zikiryoxonovna
AQSH ADABIYOTIDA PSIXOLOGIK ROMAN TADRIJI 195-203

Odinayev Bekqul Imamqulovich
LISONIY SHAXS: TA'RIF, TAHLIL, TALQIN 204-210

Jaloliddin Jo'rayev, Jamoliddin Jo'rayev
**"DEVONI LUG'ATIT-TURK" VA "GULSHAN UL-ASROR" DAGI QADIMGI TURKIY SO'ZLAR
QIYOSI** 211-217

Saidov Akmal Azimovich
**"TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI" YO'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARDA
MADANIYATLARARO MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH** 218-224

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li
**SUDYALAR OLIY KENGASHINI SUDYALARARNING CHINAKAM HAMJAMIYATI ORGANIGA
AYLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY MASALALARI** 225-231

Жўраев Дилмурот Мухторович
**МАЪМУРИЙ ВА ОММАВИЙ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН
НИЗОЛАРНИ СУДДА ҲАЛ ЭТИШДА КЕЛИШУВ ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАРИНИ ҚЎЛЛАШГА
ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР** 232-240

Эшонхонов Камолхон Маматхонович
**БАНД СОЛИНГАН МУЛКНИ ҚОНУНГА ХИЛОФ РАВИШДА ТАСАРРУФ ЭТИШ ЖИНОЯТИНИ
КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШДАГИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР** 241-246

Бўриев Одил Қобилович
**КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ – ИНСОН ҚАДРИНИ ЮКСАЛТИРИШ
МЕЗОНИДИР** 247-253

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Umarzoda Shohruh Azamat o'g'li
**"ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASH ASOSLARI" FANI MAZMUNI VA O'QITISHNING
MAVJUD HOLATI** 254-259

Эргашева Гули Исмоил кизи, Инамова Гуллола
**ЗНАЧИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ
КОММУНИКАЦИИ** 260-265

<i>Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo o'g'li</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI VARIANTIV TUSHUNCHALAR ASOSIDA O'QITISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING O'RNI	266-271
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI	272-277
<i>Ботиров Азизбек</i>	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ: АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ	278-283
<i>Эшбеков Сардор Журакулович</i>	
ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРVARЛИК РУХИДА ТАРБИЯЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШИНГ МУҲИМ ОМИЛИ	284-288
<i>Abdullaeva Feruza Suyunovna</i>	
KASBIY TERMINOLOGIYANI O'RGATISHDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	289-293
<i>Ortiqov Oybek Rustamovich</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING TASHKIL ETILISHI.....	294-298
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING "TIL VA NUTQ" MARKAZIDA INNOVATSION FAOLIYAT OLIB BORISH	299-303
<i>Robiya Mannopova</i>	
INNOVATIVE COMPETENCY AS A CORE COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS.....	304-308
<i>Qodirov Olim Odilovich</i>	
REFLEKSIV YONDASHUV, UNING MOHIYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	309-314
<i>Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna</i>	
TARBIYA FANINI O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	315-322
<i>Xasanova Gulsanam Xusanovna</i>	
IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATDA MAGISTRATURA TALABALARINING TASHKILIY- BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI	323-328

09.00.00 – Фалсафа фанлари

To'xtayev Xakim Primovich

O'zbekiston Milliy universiteti Falsafa va mantiq
kafedrasi professor v.b.

TASAVVUF TA'LIMOTLARIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada, qadriyatlar mavzusi falsafiy-tarixiy tahlilini madaniy rivojlanishida katta mavqega ega bo'lgan tasavvuf ta'lomi transformatsiyasining tadrijiy davrlari ochib berilgan. Xususan, Kubroviya, Yassaviya, Naqshbandiya tariqatlarida inson ruhiy olamini tahlil etuvchi, uning ma'naviy kamoloti va bugungi zamonaviy yoshlarni komil inson bo'lib tarbiyalanishiga xizmat qiladigan g'oyalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ma'naviy qadriyatlar, tasavvuf ta'lomi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, axloq-odob, insonni qadrlash, poklanish, tariqat, manaviy kamolotga erishish, axloqiy poklik

Tukhtaev Khakim Primovich

Acting professor of the National University of
Uzbekistan

FEATURES OF THE MANIFESTATION OF VALUES TRANSFORMATION IN SUFI TEACHINGS

Abstract. The article reveals the gradual periods of transformation of Sufism, which occupies a large place in the cultural development of philosophical and historical analysis of the topic of values. In particular, the Kubrovia, Yassaviya, and Naqshbandiya sects analyze the spiritual world of man, his spiritual perfection and ideas that serve to educate modern youth as perfect individuals.

Key words: Spiritual values, teachings of Sufism, spiritual and moral values, morality, valuing a person, purification, sect, achieving spiritual maturity, moral purity.

Тухтаев Хаким Примович

Исполняющий обязанности профессора
Национального университета Узбекистана

ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ТРАНСФОРМАЦИИ ЦЕННОСТЕЙ В СУФИЙСКИХ УЧЕНИЯХ

Аннотация. В статье раскрываются постепенные периоды трансформации суфизма, занимающего большое место в культурном развитии философско-исторического анализа темы ценностей. В частности, секты Кубровия, Яссавия, Накшбандия анализируют духовный мир человека, его духовное совершенство и идеи, которые служат воспитанию современной молодежи как совершенной личности.

Ключевые слова: Духовные ценности, учение суфизма, духовно-нравственные ценности, нравственность, ценить человека, очищение, секта, достижение духовной зрелости, моральная чистота.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I10Y2023N21>

Kirish. Insoniyat tarixida katta ahamiyat kasb etgan ma'naviy qadriyatlardan biri Markaziy Osiyoda XI – XVII asrlarda keng rivojlangan tasavvuf falsafasidir. Aynan bugungi kunda milliy-ma'naviy qadriyatlarni yanada rivojlanтирish, yoshlarning ruhiy-ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, taraqqiyotdagi osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlashda buyuk tasavvuf mutafakkirlarning mantiqiy-falsafiy mushohadakorlik g'oyalarini o'rganish va ulardan oqilona foydalanish hamda targ'ib qilish masalasi bugungi kunning dolzarb ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tasavvuf ta'limoti islom keng tarqagan hududda ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari bilan bevosita bog'lik ravishda vujudga keldi. U o'rta asrlar davrida ijtimoiy-ma'naviy hayotining ko'p sohalarida chuqur iz qoldirgan g'oyaviy-diniy hodisa bo'lib, o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra o'ta murakkab ijtimoiy-ma'naviy fenomendir. U aslida islom dini negizida shakllangan bo'lib, unda qadimgi yunon falsafiy yo'naliishlari massihiyalar, zardushtiylik, buddaviylik kabi turli diniy va falsafiy ta'limotlarning ta'siri sezilarlidir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Qadriyatlар mavzusi falsafiy-tarixiy tahlilini madaniy rivojlanishda katta mavqega ega bo'lgan "tasavvuf" oqimining asosiy namoyondalari qarashlarisiz tasavvur qilish qiyin. Tasavvuf g'oyat murakkab va serqirra diniy-falsafiy oqim bo'lib, unda isломning ilohiy qadriyatlар tizimi yangi zamonga moslashtirilgan, zamonaviy nuqtai nazardan izohlab berilgan. Tasavvufning qadriyatlар tizimida eng asosiy o'rinni Allah, u bilan bog'liq ilohiy qadriyatlар, shariat, tariqat, haqiqat va ma'rifat g'oyalarini egallaydi. Lekin tasavvuf falsafasini faqatgina ana shu jihatlar bilan ta'riflashning o'zi yetarli emas. Bu borada isломshunos, olimlarning asarlari ko'p. Biroq hanuzgacha tasavvuf ta'limoti batamom o'rganilgan va uning tarixi, dunyoqarashi xususida aniq, yaxlit xulosalar chiqarilgan, deb ayta olmaymiz.

Biz tasavvuf oqimiga ta'rif bermoqchi, uning sharq madaniyatidagi o'rnini belgilamoqchi emasmiz. Ammo mavzuning tarixi nuqtai nazaridan quyidagi mulohazani bayon qilmoqchimiz. Qadriyatlар muammosi yurtimiz o'tmishiga tegishli falsafiy-tarixiy tahlili Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sinolar merosi bilangina chegaralanib qolmaydi. Uni Al-Buxoriy, At-Termizi, Najmiddin Kubro, Abdulla Ansoriy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy kabi zabardast namoyondalari ta'limotiga to'g'ridan to'g'ri aloqasi bor.

Tasavvufning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy jihatlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar H.Boltaboyev, N.Komilov, I.Mo'minov, G.Navro'zova, N.Safarova, U.Uvvatov, M.Xayrullayev, M.Qodirov, I.Haqqulov kabi va boshqa faylasuf olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Natija va muhokama. "Tasavvuf irfoniy-falsafiy ta'limot sifatida bugungi radikal o'zgarishlar jarayonini ma'naviy-ruhiy me'yorlashtirishi bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarni saqlab qolish yo'lida insonparvarlik tamoyillarga ham asoslangandir".[1]

"Tasavvuf mutlaq haqiqatga olib boruvchi ta'limot bo'lib, insonni ma'naviy kamolotga olib boruvchi diniy-falsafiy ilmlarni o'z ichiga oladi va insonni o'zini tanish g'oyasi bilan oliy hadgacha barkamol etadi".[2]

Tasavvuf – g'oyat murakkab va serqirra diniy falsafiy oqim bo'lib, unda insonning axloqiy qadriyatlар tizimi yangi zamonga moslashtirilgan, zamonaviy nuqtai nazardan izohlab berilgan. Tasavvuf falsafasi ko'rinishlarida inson ruhiy olamini tahlil etuvchi, uning ma'naviy kamoloti yangi yo'llarini ko'rsatib beruvchi g'oyalar ustunlik qiladi. Bu ta'limotning tarkibiy qismi bo'lmish Kubroviya, Yassaviya, Naqshbandiya tariqatlarida, Mashrab ta'limotlarida, umumiy jihatlar bilan birga ularni bir – biridan farqlab turuvchi tomonlar ham ko'p. Lekin bu tafovutlar ularni bir-biriga qarama – qarshi qo'yishga, birini yaxshi boshqasini esa yomon baholashga olib kelmasligi kerak.

“Tasavvuf ta’limoti inson qalbidagi eng nozik o’zgarishlarni ham chuqur mulohaza bilan o’rganish, insonlardagi botiniy tuyg’ularga hamdard bo’lishga o’rgatadi”.[3]

Ahmad Yassaviy (1105-1166 yy.) ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning o’sha zamonga mos keladigan tizimini yaratgan, ularning namoyon bo’lishi va amal qilish shartlarini islom dini nuqtai nazaridan ta’riflab bergan. Yassaviy devonining “Hikmat” deb atalishidan ham ulkan ahamiyatga molik ramziy falsafiy ma’no borligini anglash mumkin. Bu asar nafaqat g’oyaviy jihatdan, balki badiiy nuqtai nazardan ham tasavvuf she’riyatining mumtoz namunasi bo’lib, g’oyatda ravon va jonli xalq tilida yozilgan.

“Devoni hikmat”[4] majmuasida Ahmad Yassaviy ma’naviy qadriyatlarning asosiy shakllari poklik, hayo, bardosh va sabr-qanoat, chidam, xushxulqlik, beozorlik, xokisorlik kabi xislatlarga ta’rif bergan. Yassaviy tariqati Sharq xalqlari orasida keng tarqalganligi, madaniy merosimizga juda katta ta’sir ko’rsatganligini e’tirof etish mumkin.

Ahmad Yassaviy tariqat — kishilarda ruhiy ishonch va umidvorlikni shakllantirishning o’sha davrlarga xos bo’lgan ma’naviy yo’llaridan biri sifatida o’rtaga tashlangan edi. Ahmad Yassaviyning tasavvufiy qarashlarida borliq muammosi va uning talqiniga e’tibor qaratsak, albatta borliq muammosi tasavvuf ta’limotida e’tiborli maqomga ega ekanligi sir emas. Barcha muammolar, jumladan diniy – irfoniy, ijtimoiy-axloqiy, qoraversa siyosiy-huquqiy muammolarning yechimi pirovard natijada borliq masalasi bilan bevosita bog’liqdir, desak xato qilmaymiz. “Xoji Axmad Yassaviy tasavvufi ta’limotida borliq masalasi vahdoniyat – yakkaxudolik ta’limoti nuqtai nazaridan turib hal qilinadi. Alloh – Xoliq, barcha narsa-ashyolarning yaratuvchisi. O’zga barcha narsa-ashyolar esa u tufayli yaratiladi va pirovard oqibatda unga qaytadi”.[5]

Ahmad Yassaviyning diniy-axloqiy falsafasidan dunyodan butunlay yuz o’girilmaydi. Balki, insonni asl komillikka eltadigan imon va e’tiqodda sobitlik, halollik va poklik, umr kechirishdan asl maqsad – Haqqa erishish yo’lida mashaqqat, riyozat chekish har bir kishi hayotining ustuvor tamoyillari bo’lmog’i lozim, degan ezgu g’oya mujassamlashgan.

Ahmad Yassaviyning diniy-tasavvufiy, axloqiy qarashlari tizimida gunoh dardi orqali Haqqa yetishish uchun ko’ngilni keng tutish, dilozorlikni gunohi azim deb talqin etish xosdir. Uning komil ishonch bilan ta’kidlashicha, “Sunnat ermish kofir bo’lsa berma ozor, ko’ngli qattiq dilozordan Xudo bezor”.[6] Faqirlikni o’ziga kundalik odad qilib olish inson zotining ko’rki bo’lib, uning axloq-odobi, xulq-atvorini g’uborsiz gul bo’lib bezash turadi. Kamtarlik, sabr-qanoatlilik, xokisorlikka “qul bo’lish”, ba’zan esa “tuproq” bo’lmoq timsolida ifodalanib kelinadi. Inson zotining noplilikdan xalos bo’lishi zaruriyati to’g’risidagi tasavvufiy fikr-mulohazalar oshiq, ishq, xolis, hol tushunchalarida o’z ifodasini topgan.

Ahmad Yassaviyning ijtimoiy qarashlari, orzu-umidlari, axloq-odob, kishilarning o’zaro munosabatlari, iymon-e’tiqod masalalari bilan ko’p hollarda o’zaro uyg’unlashib ketganligida ko’ramiz. Uning asaridaadolat, qashshoqlar, yetim-yesirlarning azob-uqubatlaridan iborat achinarli turmushi haqida qayg’urish, haqsizlikni qoralash sabablari ba’zan uchrab turadi. Hoji Ahmad Yassaviyning jamiyat to’g’risidagi fikr-mulohazalari o’ziga xosdir.

Bizningcha, Yassaviy ta’limoti va o’z davrining ma’naviy qadriyatlari, mustaqil davlat o’rnatish, unda siyosat yuritishdagi asosiy va yetakchi g’oyalardan biri vositasini o’tagan. Bundan tashqari bu ta’limot mo’g’ullar istilosidan oldingi davr qadriyatlarni, undan keyingi davr bilan bog’laydigan ma’naviy halqalardan biri bo’lgan. Alovida aytish kerakki, Alloma yuksak ma’naviyat va ma’rifatni egallash to’g’risida kelajak avlodlar uchun ham o’git bo’ladigan ezgu fikrlarni mahorat bilan bayon etgan, o’zi ham ularga og’ishmay amal qilgan. Ahmad Yassaviy o’z ona tilini tariqat tiliga aylantira olgan, xalqchil she’riyati va hikmati bilan milliy falsafa taraqqiyotiga ulkan hissa qo’shgan mutafakkirdir.

Najmuddin Kubroning (1145-1221 yy.) tasavvufiy qarashlarida insonni qadrlash muammosi ya'ni odamlarni ruhiy poklanishga, hayotni sevishga, kishilarga ixlos qo'yishga, dunyoviy muhabbatni ulug'lashga chaqirish, alohida o'rinni egallaydi.

Shayx Najmuddin Kubro tariqatga oid qarashlarini "Favotih ul jamol" (Go'zallikning boshlanishlari), "Hidoyat ut-tolibin" (Toliblarga to'g'ri yo'l ko'rsatish), "Odob ul- muridiyn" (Muridlar odobi haqida), "Minhoj us-solikin" (Soliklik yo'l-yo'rig'i) kabi risolalarida aks etgan sifatlari talablar asosida belgiladi. Xususan, u "Al-usul- al-ashara" (O'n asosiy qoida) risolasida Xudoga erishishning uch yo'li bo'lib, ulardan eng samaralisi uchinchi yo'l — tariq uch-shattor (mardlik yo'li) deb yozadi va uning o'nta asosiy maqomini quyidagicha belgilaydi: 1. Tavba. 2. Zuhd fid-dunya. 3. Tavakkul alalloh. 4. Qanoat. 5. Uzlat. 6. Mulozamat az-zikr. 7. Tavajjuh ilolloh. 8. Sabr. 9. Muroqaba'. 10. Rizo".[7]

Najmuddin Kubro xasis va baxtli kishilar haqida fikr yuritar ekan ularning boyliklarga ruju quyib insoniylik fazilatlarini yo'qotganligini qattiq tanqid qiladi. Ayniqsa hukmdorlar boylikka ruju qo'ysa, bu xalq boshiga tushgan falokat ekanligini ta'kidlaydi.

Najmuddin Kubro boshlab bergan kubroviya ta'limoti tasavvuf falsafasining boshqa tariqatlaridan nafaqat insonni ruhiy ma'naviy kamolotiga olib boruvchi yangicha o'ziga xos usul, uziga xos yo'naliш ekanligi bilan, balki ruhiy ma'naviy olamining shakllanishi jarayonini bilishga e'tiborni qaratayotgani bilan ham ajralib turadi. Ustoz A.Choriyev ta'kidlaganidek, "Unga (Najmuddin Kubroga) inson faqat ilohiyot sirlarini bilishga intiluvchi, o'zini butunlay unutib quygan mavjudot emas, balki o'zini qayta ko'rish uchun real ijtimoiy imkoniyatlarga ega bo'lgan bunyodkor sifatida talqin qilinadi".[8]

Shayx Najmuddin Kubroning insonparvarligi avvalo, o'z-o'zini tarbiya etmog'idandir, deb bilish kerak, nazarimizda. U odamgarchilik va inson qadr qimmatini o'zini hech ham maqtamay aksinchha, malomat qila-qila yetishganida deb biladi.

Najmuddin Kubro tasavvuf tarixida o'z o'rniга ega bo'lgan tasavvufiy olimgina bo'lmay, balki dunyoviy ilmlarni o'rganishga qaratgan. Avvalo o'zi uzoq o'lkalarda yurib, diniy, ilohiy, madaniy ilmlar bilan birga dunyoviy ilmlarni o'rganishga erishdi. Ul zot faqat tariqat asoschisigina emas, balki ulug' shayx, buyuk donishmand, chin vatanparvar, xalqparvar inson ham edi. U oddiy xalqni zulmdan qutqarish, ezgu ishlari, Vatan uchun jon fido qilish sifatlari bilan mashhur edi.

Rivoyat qilishlaricha, Kubro keksayib qolganiga qaramay jangchilarga faol ko'mak bergen. U bayroqni shunchalik mahkam ushlaganki, halok bo'lganidan keyin qo'lidan bayroqni olishning iloji bo'limganidan bir mo'g'ul Kubroning qo'lini kesib olgan ekan. Holbuki, Kubro hazratlari, dushman hujum qilish oldidan chopar yuborib uni hurmat qilishi va o'zi tomonga o'tishini so'raganda, bu taklifga rozi bo'lishi va omon qolishi ham mumkin edi. Ammo alloma bunga javoban, 70 yil umrini o'z xalqi bilan birga o'tkazgani, turmushining achchiq-chuchugini birga tortgani, ular boshiga balo-qazolar yog'ilayotgan paytda qochsa muruvvatdan bo'imasligini aytib, rad javobini bergen. Va alal oqibat yov qilichidan halok bo'ladi.[9]

Albatta, bu voqeа manaviy jasorat namunasi sifatida ekanligi, ro'y bergen bu voqeа ma'naviy jasorat xalqimiz qalbida abadiy muhrlanib qolgan. Keyingi ajdod-avlodlarga ulkan namuna sifatida ta'sir ko'rsatgan. Najmuddin Kubro shaxsi vatanparvarlikning oliy mezoni bo'lib qoladi. Najmuddin Kubroning diniy-irfoniy qarashlaridan barkamol avlodni tarbiyalashda samarali foydalanmoq lozim.

"Qadriyatlar muammosi tahlilida naqshbandiya tariqati, Bahouddin Naqshband (1388 yilda vafot etgan), Xo'ja Ahror (1409-1492 yy.) va Husayn Voiz Koshifiy kabi allomalar ilgari surgan g'oya va qarashlarning ham o'z o'rni bop. Naqshbandiya tariqati Sharqda keng yoyilgan, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar va boshqa mutafakkirlar ham unga chuqur hurmat bilan

qaraganlar. Navoiy “Hoja Bahouddin Naqshband” nomli asar ham yozgan”.[10] Naqshbandiylikni vujudga kelishida Yassaviy ta’limotini ta’siri sezilib turadi. Ammo naqshbandlik tariqati o’zini hayotbaxshligi, axloqiy g’oyalarini teranligi, mehnat va amaliy faoliyatga nisbatan munosabati, fuqaro orzu umidlarini to’laroq aks ettirganligi bilan boshqa oqimlardan farq qiladi.

“Bahouddin Naqshbandning odamlarga, hayvonlarga, o’simlik va barcha mavjudotga mehr-muhabbat va shafqat ko’zi bilan qarashi natijasida ruhiy quvvati shu darajada kamolotga yetadiki, balolarni qaytara oladigan, mushkullarni oson qila oladigan bo’ladi va shuning uchun uni balogardon nomi bilan tilga oladilar”.[11]

Naqshbandiya ta’limoti ijtimoiy tabaqlanish keskinlashib kishilarning mehnatini ekspluatasiya qilish asosida xudbinlik bilan dabdabali hayot kechirishga intilish kuchayib ketgan vaziyatda yuzaga kelgan.

Naqshbandiyada Olloh visoliga etish uchun dunyodan voz kechish yoki tarki dunyo qilish emas, balki barcha kishilarni halol mehnat bilan kun kechirishga, Xudoning nomini dilga jo qilib ijtimoiyadolat yo’lidan borishga chaqiradi. Uning “dilba yoru — dastba kor”, ya’ni “diling Allohda qo’ling mehnatda bo’lsin” degan fikri xuddi shu ma’noni anglatadi. “Axloqiy poklik, qanoatli, sabrli bo’lish, ixtiyoriy faqirlilik bilan Allohga intilish yuksak fazilat hisoblanadi. Naqshbandiyada odamning qadri mansabi, boyligi bilan emas, ma’naviy komilligi bilan o’lchanadi”.[12]

Bahouddin Naqshband islom dinini hayot, shaxs va oila bilan, jamiyat ravnaqi bilan bog’lab “Kam yegil, kam uxla va kam gapir” deb nasihat qilganlar. Sohibqiron Amir Temur ham bu shiorga amal qilib, arkon-u davlatga, barcha mulozimlarga aytar so’zim shu bo’ldi: “Kam yenglar – ocharchilik ko’rmasdan boy-badavlat yashaysizlar, kam uxlanglar – mukammalikka erishasizlar, kam gapiringlar – dono bo’lasizlar”[13], – deb ta’kidlagan

Naqshbandiya ta’limotidagi kamtarinlik, saxiylik, bag’rikenglik, mehr-shafqat, hayriehson, o’zaro yordam, do’stlik va birodarlik, tenglik va totuvlik, sof dallik, mehnatsevarlik, poklik, odillik va bilimdonlik kabi olg’a surilgan g’oyalar o’z mazmuni va mohiyati bilan umuminsoniy xarakterga ega bo’lib, o’zining nazariy va amaliy ahamiyatini bilan bugungi kunda ham yuksak e’tirof etilmoqda.

Demak, bu ta’limotlar o’z davrining ruhini ifoda etgani, hozir ham ma’naviy kamolotga ijobjiy ta’sip etish mumkinligi sababli milliy chegaralar bilan cheklanmagan, ma’naviy qadriyatlar hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom G’azzoliy, Bahouddin Naqshband, Abu Nasr Forobi, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Ahmad Yassaviy kabi allomalarining nafs tarbiyasi, axloq komilligi haqidagi fikrlari asrlar mobaynida milliy shuur va ongni shakllantirishda yaqindan yordam bergan. Ularning asarlarida xalqparvarlik, mehr va muruvvat, sabr-u qanoat,adolat, halollik va poklik, birovning omonati va mulkiga xiyonat qilmaslik kabi tushunchalar ham oz ifodasini topgan”.[14]

Tasavvufning qadriyatlar tizimida eng asosiy urinishi, Alloh u bilan bog’lik ilohiy qadriyatlar, shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat g’oyalari yotadi. Ba’zi mutaxassislarining tasavvufi ustuvor yo’nalishga aylanishi va tariqatchilik kuchayishi islom dunyosida tabiiy ilmiy fanlar va hurfikrlilik bilan bog’lik ilmlardan diniy bilimlarga intilish kuchaytirildi degan qarashlari ham borlig’ini ta’kidlash lozim.

Xulosa qilib hozirgi vaqtida ham ulug’ allomalarimizning ta’limotlarini hayotga tatbiq etish davom etmoqda. Jumladan, “Alloh qalbimizda, yuragimizda” deb nomlangan tamoyil O’rta asrlar diniy faoliyatining davomi desak xato bo’lmaydi. Bu tamoyilda hozirgi zamon o’zbek

xalqlarining urf-odatlari ilohiyotga bo'lgan munosabatlari o'z aksini topganligini ham ta'kidlash lozim.

Tasavvuf tariqatining har bir shakli, o'z davrining mahsuli, muayyan sharoitlardagi talab, ehtiyoj va imkoniyatlarning ifodasidir.

Islom dini singari tasavvuf ta'minotining asoschilari ham insonlarni yaxshilikka, hur va farovon hayot kechirishga, tinchlikni barqaror bo'lishiga undaydilar. Bu ta'limotlar vatanimiz hududidagi insonlarni diniy aqidalar orqali insofli bo'lishga chaqirgan. Falsafani diniy nuqtai nazaridan yuqori darajaga ko'targan.

Umuman olganda, ma'naviy-ruhiy asosi sanalgan tasavvuf ta'limoti va undagi axloq, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi g'oyalar hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Tasavvuf ta'limotidagi axloqiy tarbiya, bugungi zamонавији yoshlarni komil inson bo'lib tarbiyalanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Raxmonov S. Ikkinchı Renessans davrining ma'naviy-ruhiy asosi. – Samarqand: SamDCHTI, 2021. – B. 5
2. Navro'zova G. Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi. - Toshkent: Fan nashriyoti, 2007. – B. 30.
3. Islom ensiklopediyasi. - Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – B. 455
4. Xoja Ahmad Yassaviy Devoni hikmat (Yangi topilgan namunalar). – Toshkent: Movorounnahr, 2004.
5. Степонянс М.Т. Средневековая философия зарубежного Востока: общие контуры методологического подхода (социальные культуры характеры средневековой философии). Москва: 1990, Стр. 62
6. Ahmad Yassaviy Hikmatlar. - Toshkent: 1991, - B.52.
7. <https://kh-davron.uz/ijod/drama/shayx-najmaddin-kubro-faqirluk-haqida-risola.html>
8. Choriyev A. Inson falsafasi. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari jamiyati. 2007, - B. 227
9. Shayx Najmaddin Kubro jasorati //<https://www.naqshband.uz/makolalar/najmaddin-kubro>
10. Alisher Navoiy. Xoja Bahouddin Naqshband. Sharq yulduzi, 1993 y. №5-6. - B. 173-175.
11. Navro'zova G., Zoyirov E. Buxoroi sharifning yetti piri. - Toshkent: Muharrir nashryoti, 2018. – B. 27
12. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Naqshbandiya>
13. Amir Temur o'gitlari. - Toshkent: O'zbekiston, 2007. – B. 25
14. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B.344

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

Nº 10 (3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).